

I.G. PESTOLOTTSINING PEDAGOGIK QARASHLARI TAHLILI

Muhammadjonova Ominaxon Tolanboy qizi

University of Management and Future Technologies universiteti,

Pedagogika fakulteti, 1-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1478422>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Ishtvan Geynrix Pestolottsining pedagogik qarashlari, uning ta’lim sohasiga qo’shgan hissasi va zamonaviy ta’limga ta’siri keng yoritilgan. Pestolotssi tomonidan ilgari surilgan tabiiy ta’lim, insonparvarlik, amaliy va ko’rgazmali o’qitish tamoyillari hozirgi ta’lim tizimining asosiy tamoyillaridan biriga aylangan. Shuningdek, maqolada Pestolottsining g’oyalari zamonaviy pedagogika va ta’lim tizimida qanday shakllanib, rivojlanib borayotgani, uning yondashuvlarining bugungi kundagi dolzarbliji va ta’lim sifati hamda samaradorligini oshirishga qo’shayotgan hissasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Pestolotssi, pedagogika, tabiiy ta’lim, insonparvarlik, amaliy o’qitish, ko’rgazmali o’qitish, shaxsga yo’naltirilgan ta’lim, zamonaviy ta’lim tizimi, mustaqil fikrlash, hayotiy bilimlar.

Kirish

Har bir jamiyat taraqqiyoti bevosita ta’lim va tarbiyaning rivojlanishi bilan bog‘liq. Ta’lim inson hayotida asosiy o‘rin tutuvchi omillardan biri bo‘lib, uning shaxs sifatida shakllanishiga va jamiyatga foydali a’zo bo‘lishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, turli davrlarda pedagoglar va mutafakkirlar ta’lim va tarbiya jarayonini yaxshilashga qaratilgan nazariyalar va amaliy tajribalarni taklif etib kelishgan. Bunday pedagoglardan biri – Ishtvan Geynrix Pestolotssi bo‘lib, u insonparvar ta’lim tamoyillarini ilgari surgan va zamonaviy pedagogika taraqqiyotiga katta hissa qo’shgan.

Pestolotssi 18-asrning oxiri va 19-asrning boshlarida Yevropa pedagogikasida inqilobiy yondashuvlarni yaratgan mashhur pedagoglardan biri hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi bolalarni tabiatga mos holda tarbiyalash va ularga hayotiy bilim va ko’nikmalar berish edi. U ta’limning faqatgina bilim berish jarayoni emas, balki bolaning aqliy, jismoniy va axloqiy jihatdan rivojlanishiga xizmat qilishi kerakligini ta’kidlagan. Pestolotssi insonparvarlik g’oyalari asosida o’qitish usullarini ishlab chiqqan bo‘lib, ularni tajriba orqali sinovdan o’tkazgan va amaliyotga tatbiq etgan. Uning pedagogik qarashlari bugungi zamonaviy ta’lim tizimida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ayniqsa, mustaqil ta’lim olish, ko’rgazmali usullarni qo’llash, bolalarning

individual qobiliyatlarini rivojlantirish kabi tamoyillar Pestolotssi pedagogikasining asosiy yo‘nalishlari bo‘lib, hozirgi zamon ta’lim tizimida ham keng qo‘llanilmoqda.

Pestolottsining pedagogik qarashlari asoslari

Ishtvan Geynrix Pestolotssi o‘zining pedagogik qarashlarida bolalarning tabiiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratgan. U ta’lim jarayonini bolalarning hayotiy tajribasi, qiziqishlari va ehtiyojlari asosida tashkil etish lozim deb hisoblagan. Pestolotssi ta’lim tizimida tabiiylik tamoyiliga katta ahamiyat bergen. U bolaning rivojlanishi majburlash yoki zo‘ravonlik orqali emas, balki uning tabiiy qiziqishlari va ehtiyojlariga mos tarzda tashkil etilishi kerakligini ta’kidlagan. Uning fikriga ko‘ra, bola o‘z hayotiy tajribasi orqali o‘rganadi va shu yo‘l bilan bilimlarni yanada chuqurroq o‘zlashtiradi. Uning pedagogik yondashuvida quyidagi fikrlar asosiy o‘rin tutadi – bola o‘zining tabiiy qobiliyatlarini mustaqil rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. O‘qituvchi bolaning qiziqishlarini inobatga olishi va unga shaxs sifatida yondashishi lozim. Majburlovchi usullar ta’lim sifatiga salbiy ta’sir qiladi, shu sababli ta’lim jarayoni mehribonlik, tushunish va qo‘llab-quvvatlash asosida tashkil etilishi zarur.¹

Pestolotssi bolaning yoshiga mos holda ta’lim berish tarafdori bo‘lib, u har bir bosqichda o‘ziga xos metodlardan foydalanishni tavsiya qilgan. Masalan, kichik yoshdagи bolalar uchun o‘yin orqali o‘rgatish, katta yoshdagи bolalar uchun esa ko‘proq mustaqil izlanish imkoniyatini yaratish muhim sanaladi. Pestolotssi pedagogikasining markaziy g‘oyalaridan biri bu – bolalarni mehr-muhabbat va insonparvarlik asosida tarbiyalashdir. U ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar iliq va do‘stona bo‘lishi kerak deb hisoblagan. Bolalar hurmat va ishonch muhiti yaratilgan taqdirda bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtiradi.

Pestolotssi fikriga ko‘ra:

- ✓ O‘qituvchi bolaga shaxs sifatida hurmat bilan yondashishi kerak.
- ✓ Ta’lim jarayoni majburlash va jazolashdan ko‘ra, tushunish va rag‘batlantirishga asoslangan bo‘lishi lozim.
- ✓ Bolaning xatolari uning rivojlanish jarayonining tabiiy qismi sifatida ko‘rilishi va unga xatolaridan to‘g‘ri xulosa chiqarish imkoniyati berilishi kerak.

Uning sevgi orqali ta’lim berish tamoyili hozirgi zamonaviy ta’lim tizimida ham o‘z aksini topmoqda. Masalan, pedagogika sohasida psixologik qulay muhit yaratish va bolalar bilan do‘stona munosabat o‘rnatish muhim deb hisoblanadi.

Pestolottsining zamonaviy ta’limga ta’siri

¹ Pestalozzi I. G. Comment Gertrude instruit ses enfants (1801);

Ishtvan Geynrix Pestolottsining pedagogik qarashlari bugungi zamonaviy ta’lim tizimida ham katta ahamiyat kasb etmoqda. U ilgari surgan insonparvarlik, tabiiy ta’lim, ko‘rgazmali o‘qitish va amaliy bilim berish tamoyillari hozirgi zamonaviy pedagogikaning muhim asoslardan biri hisoblanadi. Pestolottsining ta’lim sohasiga qo‘sghan hissasi nafaqat o‘z davri bilan cheklanib qolgan, balki bugungi kun o‘qitish uslublari, o‘quv dasturlari va ta’lim falsafasida ham aks etmoqda.

Pestolotssi ta’limni bolalarning tabiiy ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos tarzda tashkil etish lozimligini ta’kidlagan. Uning bu g‘oyasi bugungi kunda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasining shakllanishiga asos bo‘ldi. Hozirgi maktab va universitetlarda o‘quvchilarning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatları inobatga olinib, mos yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Masalan, maxsus dasturlar orqali o‘quvchilarga mustaqil ta’lim olish imkoniyatlari yaratilmoqda. Ko‘plab mamlakatlarda maktabgacha ta’lim muassasalari va boshlang‘ich maktablarda bolalarni majburan o‘qitishdan ko‘ra, ularning o‘z qiziqishlari asosida rivojlanishiga e’tibor qaratilmoqda. Masalan, Montessori va Vygotskiy usullari Pestolottsining tabiiy ta’lim g‘oyalariga asoslangan.²

Pestolotssi ta’lim faqat bilim berish vositasi emas, balki insoniy fazilatlarni shakllantirish jarayoni ekanligini ta’kidlagan. Bugungi zamonaviy ta’lim ham ushbu tamoyilga asoslanib, nafaqat akademik bilimlarni berishga, balki o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchilar o‘quvchilar bilan do‘stona, ishonchli munosabatlar o‘rnatishga harakat qilmoqda. Ilgari mavjud bo‘lgan qat’iy intizom va jazo tizimlari o‘rnini mehribon va qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim yondashuvi egallamoqda. Hozirgi maktab dasturlarida axloqiy va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan fanlar va darslar mavjud. Masalan, ko‘plab mamlakatlarda “Axloqiy tarbiya”, “Hayotiy ko‘nikmalar” kabi fanlar o‘qitilmoqda.

Pestolotssi ta’limda nazariy bilimlarni amaliy mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirish kerakligini ta’kidlagan. Bugungi kunda ham ta’lim tizimi ushbu tamoyilga asoslanib, amaliy o‘qitish usullarini keng joriy etmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimida STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) fanlari amaliy mashg‘ulotlar orqali o‘rgatilmoqda. Masalan, matematika va fizika darslarida laboratoriya ishlari, real muammolarni hal qilish bo‘yicha loyihalar o‘quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotda sinash imkoniyatini beradi.

² B. G. Ananyev. Psixologiya va pedagogika asoslari – Moskva, 1980;

Pestolotti bolalarga tayyor bilim berish o‘rniga, ularga mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimligini ta’kidlagan. Zamonaviy ta’lim ham aynan shu tamoyilga tayanib, kritik tafakkur va ijodiy fikrlashni rivojlantirishga e’tibor qaratmoqda.³

Xulosa

Ishtvan Geynrix Pestolottsining pedagogik qarashlari nafaqat XIX asrda, balki bugungi zamonaviy ta’lim tizimida ham katta ahamiyatga ega. U ta’limning asosiy vazifasi bolaning tabiiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda, uning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qilishdan iborat ekanligini ta’kidlagan. Uning ilgari surgan insonparvarlik, amaliy bilim berish, ko‘rgazmali o‘qitish va mustaqil fikrlashni rivojlantirish tamoyillari bugungi ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlari sifatida e’tirof etilmoqda. Zamonaviy ta’lim tizimi Pestolotti tamoyillarini rivojlantirish va amaliyotga tatbiq etish orqali yanada mukammal tizim yaratishga intilmoqda. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, kritik tafakkur, kasbiy ta’lim va hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirish kabi yondashuvlar aynan Pestolotti tomonidan ilgari surilgan g‘oyalarga tayanadi. Shuningdek, bugungi maktab va universitetlarda o‘quv jarayoni Pestolotti tamoyillariga asoslanib, amaliy mashg‘ulotlar, interaktiv o‘qitish usullari va talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan holda tashkil etilmoqda.

REFERENCES

1. Sulaymon Amirqulovich Xaydarov. (2024). O‘quvchilarni tarbiyashda ijtimoiy fanlarni o‘qitishni didaktik imkoniyatlari. SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL. 5.1.B.271-275.
2. Хайдаров, С. (2023). Pedagogik faoliyatda o‘qituvchi o‘zida kompetentlik sifatlarini shakillantirishi. Цифровизация современного образования: проблема и решение, 1(1), 64–67.
3. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(1/2), 92-96.
4. Хайдаров С. (2024). Spiritual influence on child education in families. Web of Teachers: Inderscience Research. 2 (11). 203-205.
5. Хайдаров С. (2025). Оилаларда фарзанд тарбиясига руҳий таъсир ўтказиш. Modern Education and Development. 3 (17). 23-27.

³ V. V. Davydov. Ta’lim nazariyalari va metodlari – Toshkent, 2005;

6. Khaydarov S.A. (2025). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. Modern Education and Development. 3 (17). 28-33.
7. Xaydarov S.A. (2025). Ijtimoiy-gumanitar fanlarda raqamli metodlardan foydalanish yo‘llari. NEW RENAISSANCE international scientific journal. 2(1). 91-94